II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 85 419,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 8,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish

(yanvar-dekabr oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2024- yil	2025- yil	
	I. YAHM	**71 869,1**	**85 419,0**	**108,2**
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	70 770,9	84 052,2	108,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 098,2	1 366,8	110,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	**70 770,9**	**84 052,2**	**108,1**
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	**20 726,6**	**23 483,2**	**104,3**
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	**17 618,8**	**20 631,5**	**109,6**
	sanoat	12 060,8	14 098,6	109,1
	qurilish	5 558,0	6 532,9	110,6
	Xizmatlar	**32 425,5**	**39 937,5**	**109,8**
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13 801,0	17 366,9	114,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 686,4	4 837,6	111,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	14 938,1	17 733,0	105,3

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi *(% da)*

2024- yil yanvar-dekabr



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi *(% da)*

2025- yil yanvar-dekabr



Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-dekabr oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 923 514,6 mlrd so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 61 824,8 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida 789 542,0 mlrd so‘mni, Namangan viloyatida esa 52 310,9 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-dekabr oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 52,2 % (2024- yil yanvar-dekabr 53,5 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 73,6 % (2024- yil yanvar-dekabr 73,9 %) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,6 % ni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-dekabr oyida – 73,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi
(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2024- yil yanvar-dekabr	2025- yil yanvar-dekabr
Yanvar-dekabr	52 310,9	61 824,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish

(2025- yil yanvar-dekabr)

Ko‘rsatkichlar	mlrd so‘m		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O‘zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**1 849 650,0**	**85 419,0**	**4,6**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	1 768 139,4	84 052,2	**4,8**
Mahsulotlarga sof soliqlar	81 510,6	1 366,8	**1,7**
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**1 768 139,4**	**84 052,2**	**4,8**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**306 294,2**	**23 483,2**	**7,7**
Sanoat *(qurilish sohasini qo‘shgan holda)*	**601 953,8**	**20 631,5**	**3,4**
sanoat	472 729,7	14 098,6	**3,0**
qurilish	129 224,1	6 532,9	**5,1**
Xizmatlar	**859 891,4**	**39 937,5**	**4,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	215 494,4	17 366,9	**8,1**
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	149 508,8	4 837,6	**3,2**
boshqa xizmatlar	494 888,2	17 733,0	**3,6**

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 27,9 %), sanoatda – 109,1 % (16,8 %), qurilishda – 110,6 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 109,8 % ni (47,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 114,3 % (20,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,7 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,3 % dan (21,0 %) iborat bo‘ldi.

2024-2025- yil yanvar-dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)